



BADIIY ADABIYOTDA BO'YOQOR LEKSIKANING AHAMIYATI

Umirova Dilnoza Azimovna

DTPI filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

III kurs talabasi

+998 (97) 296-09-07 umirova843@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17379334>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'yoqdor leksika haqida ma'lumot beriladi. Bo'yoqdor leksikaning badiiy adabiyotdagi ahamiyati xususida so'z yuritiladi hamda bir nechta asarlarda qo'llangan bo'yoqdor so'zlar tahlil qilinadi. Ularning badiiy matnda bajargan vazifasi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: leksema, bo'yoqdor leksika, ijobiy bo'yoq, salbiy bo'yoq, adabiyot, obraz, lirika.

Til nafaqat axborot uzatish vazifasini, balki axborot uzatuvchining axborotga bo'lgan hissiy munosabatini ham ifodalaydi. Lisoniy tizimda bu hissiy munosabatni tashuvchi turli vositalardan biri leksemadir.

O'zbek tili leksikasida so'zlar emotsional-ekspressiv jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf so'zlar. Bunday so'zlarning semantik tarkibida faqat denotativ ma'no (atash, nomlash semalari) mavjud bo'ladi: *yuz, oriq, ozg'in, jilmaymoq* kabi.

2. Emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor so'zlar. Bunday so'zlarning semantik tarkibida denotativ ma'no (atash, nomlash semalari) bilan birga uslubiy bo'yoqlar (ifoda semalari, konnotativ semalar) ham mavjud bo'ladi: *turq* (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq), *dirdov* (denotativ ma'no+uslubiy bo'yoq), *qiltiriq, ipiltiriq* (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq), *irshaymoq* (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq) kabi.[1:210-211]

Shu xususiyatlariga ko'ra bo'yoqdor so'zlar ikki turga: 1) ijobiy ma'no nozikligiga ega bo'lgan so'zlar, 2) salbiy ma'no nozikligiga ega bo'lgan bo'yoqdor so'zlarga bo'linadi.

Ijobiy bo'yoqdor so'zlar: 1) yuqori, tantanavorlikbo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar. Masalan: *zukko, daho, siymo, avliyo, jonfido, hayratomiz, porloq, nuravshon, jannat, huzurbaxsh*; 2) poetik uslub uchun ishlatiladigan so'zlar; *koshona, minora, jilvakor, fusunkor, oftobsiymo, hassos, og'ish, sayqal, malak, ajib, dilbar, didor, mohiroy, begim, kosagul, surur, gulbadan, mohichehra* kabi. Salbiy bo'yoqdor so'zlar; *makkor, kazzob, satang, qo'shmachi, yalog'i, buzuq, fohisha, lan`ati, iflos, ig'vogar, muttaham, xotinboz, g'alamis, ma`lun, vaysaqi, murdor, o'laksa, tekinxo'r, boqimanda* kabi va boshqalar.

Shuni ham aytish kerakki, *yaxshi va yomon, g'azab va nafrat* kabi so'zlarda uslubiy bo'yoq bordek tuyuladi, aslida esa ularda uslubiy bo'yoq yo'q, bu so'zlar belgi yoki voqelikni atash (nomlash) bilan cheklanadi, shunga ko'ra emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor so'zlar sanalmaydi. [2:160-161]

O'zbek tili lug'at tarkibidagi leksemalarning ko'p qismi hissiy bo'yoqdan holi bo'ladi. Bunday birlik bo'yoqsiz leksema deyiladi.

Bo'yoqdor leksemaning hissiy munosabatni ifodalovchi ifoda semasi bo'rtib turadi: ulkan, badnafis.

Bo'yoqdor leksemaning ifodaviyligi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy bo'yoqdor leksema so'zlovchining borliq hodisasiga ijobiy munosabatini ifodalaydi va ular sememalarida ifoda semalari ijobiy bo'ladi: *Orazin yopqoch ko'zimdan sochilur har lahza yosh (Navoiy).*

Salbiy bo'yoqdor leksema borliq hodisasiga so'zlovchining salbiy munosabatini ifodalaydi va ular sememasida salbiy munosabatni ifodalovchi sema bo'rtib turadi: So'ngra yakkam-dukkan *iflos* tishlarini yashirgan og'zini katta ochib esnadi, go'yo uning butun *badburush* yuzini og'iz qopladi (Oybek).[3:154-155]

Bo'yoqdor leksika so'zlovchining bo'lgan voqeaga yoki shaxsga munosabatini ochib beradi. Shaxsning ichidagi hislarni, norozilik kayfiyatini yoki "aksincha"-ijobiy munosabatni anglatadi.

Birgalikda bir nechta asardagi bo'yoqdor so'zlarni tahlil qilamiz. Misol qilib O'.Umarbekovning "Qiyomat qarz" hikoyasini oladigan bo'lsak, asarda "*to'ng'illadi*", "*jazillama*", "*bashara*", "*bo'kirasan*", "*o'krab yubordi*" kabi salbiy bo'yoqqa ega so'zlarni uchratishimiz mumkin." *Nima, senga og'irligim tushdimi? - to'ng'illadi Sarsonboy ota oftob sarg'aytirgan siyrak qoshlarini chimirib.*" - ushbu gapda "*to'ng'illadi*" so'zi salbiy bo'yoqqa ega. To'g'ri, yozuvchi aynan ushbu leksemani emas, "gapirmoq" (so'zlamoq, so'ylamoq va h.k.) paradigmasidan o'rin olgan boshqa leksemani qo'llashi mumkin edi. Ammo, ushbu paradigmaning boshqa a'zolari aynan "*to'ng'illadi*" so'zidagi norozilik, g'azab, bezillash ma'nolarini ifodalab bera olmaydi va shuning uchun vaziyatni to'la yoritib berolmaydi.

Zebi xola uni ko'rib, o'zini tutolmay, o'krab yubordi. Ushbu gapda "*o'krab yubordi*" birikmasi qo'llanilgan. Bu birikma orqali yagona farzandidan ayrilgan, achchiq alam va afsus chekayotgan onaning holati ifoda etilgan. Hikoyadagi yana bir "*jazillama*" so'zi orqali Madumar akaning do'sti Sarsonboy otaning muomalasidan va qaysarligidan norozilik ayfiyati ifoda etilgan.

- *Qaydam, - dedim men ham, - Istambuldagi xolalarim: "Tilingni tiy. Behuda vaqillama. U yerning odamlari g'iybatchi bo'ladi", - deb tayinlashuvdi-da. Baliqchilar: "Bu qanday musulmon qiz, boshigina emas, sonini ham ochib yuribdi", deyishmasi dedim-da...*[4:63]

Yuqoridagi parchada salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan "*vaqillama*" so'zi qo'llanilgan. Bu orqali "keraksiz gaplarni ko'p so'zlama" deya tanbeh berish ma'nosi ifodalangan.

Xo'p, - dedi. - Lekin bir shart bilan. Avvalo, men bilan bo'g'ishmaysan, qolaversa, uni yaxshi ko'rganingni faqat o'zimga, faqat o'zimgagina yana bir marta aytasan.[4:87]

Ushbu parchada "*bo'g'ishmaysan*" so'zi orqali men bilan talashmaysan, tortishmaysan buyrug'i bo'rttilgan.

Bo'yoqdor leksika lirik adabiyotda ham salmoqli o'ringa va ahamiyatga ega. Ma'lumki she'rda ijodkorning ichki his-tuyg'ulari she'riy tarzda aks ettiriladi. Tabiiyki, shoir buning uchun bo'yoqdor leksikaga murojaat etishiga to'g'ri keladi.

Biz she'rlarda bo'yoqdor leksikaga ko'p duch kelamiz. Masalan, lirik asarda uning badiiy jozibasini oshirish maqsadida "*yuz*" so'zining o'rniga "*chehra*" so'zining qo'llanishiga ko'p duch kelamiz. Ishqda chorasiz oshiq ma'nosini anglatish uchun "*g'arib*" so'zi qo'llaniladi va bu orqali lirik qahramon-"*oshiq*" yorining visolida aqldan ozayotgani, uning dardiga "yor"dan boshqasi malham bo'la olmasligi ifoda etiladi.

*Men buyuk yurt o'g'lidurman,
Men bashar farzandiman,*

Lek avval senga bo'lsam

Sodiq o'g'lon, o'zbekim.

E.Vohidov "O'zbekim"

Qasidadan keltirilgan parchada ko'rishimiz mumkinki, shoir o'z yurtiga nisbatan "katta" yoki "chiroyli" sifatini qo'llash o'rniga aynan "*buyuk*" sifatini qo'llagan. Ammo, "*buyuk*" sifati ko'pincha odamlarga qo'llaniladi. Shoir bu so'zni o'z yurtiga nisbatan qo'llash orqali, yurtining nafaqat katta va chiroyli ekanligi, shuningdek tengsiz, jannatmakon ekanligini ham ifodalashga intilgan.

Ko'zlarimda kulib turar jon Vatan,

Tomirimda oqib turgan qon Vatan

Sendan ortiq suyuk ham yo'q, buyuk ham.

Onam kabi aziz Onajon – Vatan![5:16]

Ushbu she'riy parchada ham yuqoridagi kabi shoir o'z yurtiga nisbatan "*buyuk*" sifatini qo'llagan va yurtini ulug'lagan.

Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar,

Qancha yurtni ko'rdim, qancha taqdirlar.

Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,

Tog'laring izimdan ergashib yurar.[6:119]

Ushbu she'riy parchada, aynan joy so'zini qo'llamasdan "*go'sha*" so'zini qo'llash orqali ijodkor yurtining har bir joyi, xoh u suv bo'lsin, xoh qir unga qadrli joy ekanligini bildirmoqda. Ma'lumot o'rnida shuni aytish mumkinki, "*go'sha*" so'zi o'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan bo'lib, "burchak", "qism" ma'noini anglatadi. "*Jigargo'sha*" so'zi ham shu so'zdan kelib chiqqan.

Men na boyvachchaman,

Men na sultonman,

G'arib bir onaga g'arib o'g'lonman.

Agar sen yer bo'lsang, men undan xoksor,

Agar sen sher bo'lsang - men ham arslonman.[6:121]

Yuqorida keltirilgan she'riy parchada ona va o'g'ilga nisbatan "*g'arib*" so'zi qo'llanilgan. Bizga ma'lumki, "*g'arib*" so'zi hech kimi yo'q, nochor, musofir insonga nisbatan ifodalanadi. Ushbu she'rda esa bu so'z ham oddiy inson ma'nosini, ham o'z ma'nosini - nochor inson ma'nosini ifodalash uchun qo'llanilgan.

O'saver, O'zbekning asl farzandi,

Purviqor tog'larga tenglashsin bo'ying.

Sozingni qo'lingdan tushurma zinhor,

Dunyolarni tutsin dilrabo kuying.[5:14]

Keltirilgan she'riy parchada tog'larga nisbatan "*purviqor*" sifatini qo'llash orqali tog'larning chiroyli, ulkan va viqorli ekanligini tasvirlab bermoqda.

Mayli sen-la topishmoq,

Men uchun og'ir bo'lsin.

Ishqingda chekib ozor,

Darddan dil yag'ir bo'lsin.[5:103]

Dilning "*yag'ir*" bo'lishi. Biroz g'alati eshitiladi to'g'rimi? Chunki, dil mavhum ot, "*yag'ir*" sifati esa anchadan buyon tozalanmagan, nihoyatda iflos naqrsalarga nisbatan qo'llaniladi.

Xo'sh unda shoir nima uchun aynan shu so'zdan foydalangan? Bu orqali shoir she'riyatga murojaat etib yonida turishini so'rar ekan, uning ishqida dili har qancha yaralanishiga, undan izlar qolishiga, ya'ni "yag'ir" bo'lishiga rozi ekanligini aytadi. Bu yerda so'zdagi salbiy ma'no yo'qolib, ko'p yaralangan dilni "yag'ir" deb tasvirlaydi.

*Sen qalblar mash'ali, umid chirog'i,
Bog'larda sayragan xandon bulbulan.
Ertangi kunimiz ishonch chirog'i,
Chamanda ochilgan bezavol gulsan.[5:14]*

Bizga ayonki, "xandon" so'zi "xushchaqchaq, kulib turuvchi" ma'nolarini anglatadi. Ammo bulbul sayraydi, kulmaydi. Ammo insonlar juda quvonganida ham, g'am chekkanlarida ham yig'laganlari kabi qushlar ham quvonchdan ham, falokat tufayli ham sayrashlari mumkin. Shu boisdan shoir bulbul doimo quvonchdan sayrashini ifodalash uchun aynan "xandon" sifatini qo'llagan.

*Shiorimiz tinchlik va do'stlik,
Adolatdir bosh Qomusimiz.
Baxtimizdan so'ylaydi ertak,
Yaxshilikdir or-nomusimiz.[5:14]
Ushbu she'riy parchadagi "so'ylaydi" so'zi she'rga badiiylik baxsh etgan.
Yashashga kelganman, boyluk quvibmas,
Bu gapni shu bugun aytmasam bo'lmas.
Kelishib olaylik, keling iltimos,
Chalajon gaplardan hech ko'nglim to'lmas.[5:106]*

Yuqoridagi misolda gapga nisbatan "chalajon" sifati qo'llangan. Ammo gapda joni yo'q-ku. Gap shundaki, ba'zi insonlar chin dildan emas, shunchakiy 'o'zlarini ko'rsatish' maqsadida yuzaki so'zlaydilar. Shoir mana shunday gaplarni "chalajon" deb atagan.

Yuqorida keltirilgan misollardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ba'zan badiiy adabiyotda ijodkor vaziyatni to'la yoritib berish yoki o'z his-tuyg'ularini ko'rsatib berish uchun biror so'zning o'zini emas, uning sinonimik paradigmasida joylashgan bo'yoqdor so'zni qo'llashiga to'g'ri keladi. Bu ijodkor o'ylarini o'quvchiga yanada yaxshiroq anglashga yordam beradi, kitobxonni o'ziga jalb etadi. Hamda bu orqali badiiy o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi.

Badiiy adabiyotning vazifasi insonlarga dunyoni anglash, tarbiyalash, jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi hamda o'z hayoti, kelajagi to'g'risida o'ylashga undaydi. Bunda bo'yoqdor leksika ham o'z o'rniga ega. Boshqacha qilib aytganda badiiy adabiyot yashashi va o'z vazifasini bajarishida bo'yoqdor leksikaga muhtoj.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent:"Talqin", 2005.
2. O'zbek tili leksikologiyasi. Jamoa. - T.: "Fan", 1981.
3. Guntekin. Choliqushi.-Toshkent:"Kamalak", 2019
4. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent:IRNMU,2020.
5. Rayimov X. Meni shoir qilgan MUHABBAT.- Toshkent:"Tamaddun",2021.
6. M.Yusuf. Quyoshga qarab oqqan suv. -Toshkent:"Nurafshon business",2023.